

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI**

**“OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI:
TAHLIL, TASNIF, QIYOS”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TOSHKENT – 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**“OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB
MASALASI: TAHLIL, TASNIF, QIYOS”**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2022-yil 30-noyabr

**Международная научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМА ЯЗЫКА И СТИЛЯ В СММ: АНАЛИЗ,
КЛАССИФИКАЦИЯ, СРАВНЕНИЕ».**

30 ноября 2022 года

International scientific and practical conference

**“THE PROBLEM OF LANGUAGE AND STYLE IN MASS MEDIA:
ANALYSIS, CLASSIFICATION, COMPARISON”**

November 30, 2022

için bir televizyon teknik merkezi kuracak. Yönetmen Nurgaliev, 1987'de okulda bir bilgisayar sınıfı tanıtan ülkede ilk kişi oldu.

31 yıl boyunca okulu aralıksız yöneten Kumash Nurgaliev, kendini sadece nitelikli bir lider ve eğitimli bir öğretmen olarak göstermekle kalmadı, bilim ve teknolojinin en son yeniliklerini cesaretle eğitime soktu, cesaretle eğitim ve genç neslin yetiştirilmesi konusunu gündeme getirdi. herhangi bir platformdan ve bir çözüm buldu. Liseden 2-3 anadal ile mezun olan mezunlar köyde çalışmak istediklerini dile getirdiler. Kumash Nurgalyuly onlar için bir demir torna makinesi, bir odun kesme atölyesi, bir traktör-araba kullanma sınıfı ve terzi, yemek pişirme ve pastacılık için 9 endüstriyel eğitim odası açtı. Özellikle büyük hoca, şehir ile kır arasındaki eğitim uçurumunu gidermeye çalışmıştır. Her sınıfa bir televizyon yerleştirildi ve öğretmene ders sırasında istediği zaman bilimsel ve kitlesel belgesellerden alıntılar gösterme fırsatı verildi. Okula eğitimdeki en iyi yenilikleri cesurca tanıtmak için SSCB'nin önde gelen bilimsel ve pedagojik enstitüleri ile yakın ilişkiler kurdu.

Bir efsane haline gelen ve kendini mesleğine adanmış Kumash Nurgaliev, okuluna sadece bir iz bırakmakla kalmamış, aynı zamanda yenilikçi pedagojiye dayalı bir eğitim vermenin yolunu açmıştır. 27 Kasım 1981'de, büyük bir öğretmen olan Kumash Nurgaliyev, SSCB Yüksek Sovyeti Kurulu Kararı ile "SSCB Halk Öğretmeni" unvanını aldı. Büyük Vatanseverlik Savaşı ve barış zamanındaki övgüye değer çalışmaları nedeniyle, "Lenin", "Savaşçı" ve "İşçi Kızıl Bayrak" emirlerinin yanı sıra birçok madalya ile ödüllendirildi. Kazak SSC'nin Onurlu Öğretmeni.

"Köke dal, soydan nesile" demek istiyoruz, bugün Kumash Nurgaliuli'nin torunları öğretmenler hanedanını sürdürüyor.

KAYNAKÇA

1. Tokaev K. Halkın birliği ve sistematik reformlar, ülkenin refahının sağlam temelidir. // Bağımsız Kazakistan. 165 (30144) 2 Eylül 2021.
2. Nagymov Ş. Halk hocası Kusiyn Aitkaliyev'in pasajları. // Halkın öğretmeni. Atrav: "Atrav - Bilgi", LLP, 2021. - 540 s.
3. J. Makatova. Hikaye gerçek bir öğretmen hakkında. // "Bilimdi el" cumhuriyetçi eğitim sosyo-politik gazetesi. 5(259), 2.02. 2021.

ABDURAUUF FITRAT PUBLITSISTIKASI VA BADIY TALQIN

Jamilova Bashorat Sattorovna,

**Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori**

Annotatsiya: maqolada Abdurauf Fitrat publitsistikasining o`z davri ijtimoiy-siyosiy hayoti va hamon dolzarbligi ahamiyati, undagi tahliliy mushohada, dalil va ma`lumotlarning badiiy -tamsiliy ifodalanishi tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: publitsistika, tamsil, fel'eton, pamflet, publitsistik memuar, tashbeh, fe`l-kesim, tasvir, badiiy libos.

Abdurauf Fitratning serqirra ijodida publitsistika alohida o`rin egallaydi. Buxoro jadidchilik harakati, ijtimoiy-siyosiy hayotida Fitratning yirik tarixiy shaxs sifatida tanilishi bejiz emas. Uning har bir asari, jumladan, o`tkir publitsistik maqolalarida ham o`z davrining muhim siyosiy, ijtimoiy, maishiy hayotdagi dolzarb muammolar mavzu sifatida belgilangan. Fitrat lirik va dramatik asarlari bilan birga publitsistikada ham Sharq madaniyatining o`rta asrlardagi jahonga dovruc solgan qudratini ta`rif-tavsif etadi, mumtoz adabiyot an`analariga murojaat qiladi; ayni paytda XX asrga kelib ilm va taraqqiyotda ancha ilgarilab ketgan Ovrupo va Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma`naviy, madaniy tamaddunini qiyoslashda publitsistik tahlil va badiiy talqin ifodasi yaqqol ko`zga tashlanadi.

Ma`lumki, XVII-XVIII asrlardagi frantsuz inqilobini tayyorlash davri, Angliya sanoati rivojidadagi burilish va burjua munosabatlarning o`sishi Evropada publitsistikani yangi taraqqiyot bosqichiga ko`taradi. Publitsistika bu paytda siyosiy qarashning badiiy libosga o`ralgan alohida shakli sifatida maydonga chiqqan. Irlandiya ozodligi uchun kurash, chartistlar harakati, Sitsiliya to`qimachilarining yurishlari kabi voqealar matbuot e`tiborini o`ziga tortgan. Xuddi shu vaqtlarda J.Svift, D.Defolarning ijtimoiy hayot, axloq, iqtisod, tarix, siyosat, din haqida bahs etuvchi mashhur pamfletlari va maqolalari yozilgan. Yoxud, Vol'ter, Russo, Didro, Bomarshe, Babyof singari buyuk mutafikkirlarning jahon tamadduni tarixida katta ahamiyatga ega bo`lgan publitsistik memuarlari yaratilgan [3, 24].

Binobarin, Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi" asari va publitsistik maqolalari Turkistondagi baayni shu kabi masalalarning keskin fosh etilishiga bag`ishlangan. Jumladan, uning "Muxtoriyat", "Turkistonda ruslar", "Angliz va Turkiston", "Sharq siyosati" kabi publitsistik ijod namunalarida o`tkir siyosiy ruh bilan birga badiiy-tamsiliy detallar keng o`rin egallaydi. Ta`kidlash joiz, Fitratning publitsistik maqolalari asosan matbuot uchun mo`ljallanganligidan hajmi katta emas. Ammo ularda publitsistikaga xos dalil, mushohada, munosabat, real ijtimoiy voqelikning tahlili yorqin aks etadi. Ularni bayon etiishda esa muallif obrazlilikdan o`rinli foydalanadi. Adibning "Sharq siyosati" asari "Ishtirokiyun" gazetasining 1919 yildagi 23, 25, 26 oktyabr' sonida, so`ngra Toshkentda alohida risola hoida chop etilgan [1,252]. Unda Sharq va Ovruponing tarixiy taraqqiyot xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif Sharq xalqlarining yaqin o`tmishidagi qonli urushlar, mustamlakaga aylangan mamlakatlarning qachondir tinchlik va taraqqiy beshigi bo`lganligi, madaniyatning yo`lboshchisi, bilim va hunarning o`chog`i ekanligini asosli dalillar bilan sharhlashga harakat qiladi. "Chinlilar yozish uchun qog`oz yasag`anda

ovro`palilar o`ng-so`l qo`llarini bir-birindan ayira olmas edilar... Bag`dodda arab san`atchilari soat yasab, Ovrupag`a yubarg`anda, Parisning (Parij) u palladagi angellari "bu quti ichida shaytonlar bor" deb soatni tashlab qochg`an edilar"[1,213]. Shunga o`xshash, Ýron, Yunon, Hindiston, Misr kabi mamlakatlarda turli madaniyat maktablari barpo etilgani ta`kidlanib, endigi xor-u zorliklar sababi izohlanadi: "Biz sharqlilar, dahi tinchlik va rohat so`nginda buzulib qoldiq, yo`ldan ozdik, ezgu tilaklarimizni unuta boshladik. Bilim va hunardan yuz qaytardik, birlik va axloqdan ayrilduk, oqchag`a berildik, oqchag`a sotilduk..." Natijada har bir mamlakat navbati bilan tinchlik va taraqqiy bosqichlaridan "qullik va yo`qsulliq chuqurlarig`a yumalab tusha boshladilar. SHarqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mullalar, bilimsiz eshonlarning qo`lig`a o`tdi. Bunlar Sharqning butun tuzuk va intizomini buzub yubordilar. Xonlar o`z qorinlarini to`ydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urushdirdilar, mamlakatning muhim va jonli o`runlarini sotdilar, mullalar o`z istavlarig`a "din" otini toqib bozorg`a chiqardilar, din, tangri, payg`ambar, uchmoh va tamug` orqali Sharq xalqini talay boshladilar"[1, 215]. Ta`kidlab ko`rsatganimiz obrazli ifoda va xalqona iboralar yozuvchining publitsistikada ham badiiy so`zdan, xususan, xalq latifalariga xos istehzoli piching, kesatiq va kinoyalardan o`rinli foydalanganini asoslaydi. Publitsistikashunos O.Tog`ayev ta`kidicha, "publitsistikadagi obrazlilik maqoladagi mantiqiy muhokamalarga o`ziga xos ruh bag`ishlaydi" [2,19].

Fitrat publitsistik tadqiqotga ham alohida e`tibor qaratadi: mavjud voqelik sababini izlaydi. U butun Sharq haqida asosli fikr yuritsa-da, asosan, Turkiston nazarda tutilayotgani ravshan. Shu sabali o`tgan asr boshlaridagi mamlakat ahvoli SHarq timsolida uyg`unlashadi: "...Sharq g`aflat va bilimsizlik tamug`larig`a yumalab yotaturg`an chog`da Ovrupa ko`zi uyqusidan yangigina turar edi. Ovrupalilar uzun va zararli uyqusidan uyg`ong`ach, och qolg`an yirtg`uchilar kabi Sharq ustiga otildilar. Dunyoning eng yog`li bir bo`lagi bo`lgan Sharq yirtg`uchi hayvonlar orasinda qolg`an semiz, lekin kuchsiz bir qo`y holatini oldi. Ovrupa yirtqichlari Sharqning har yonindan soldirdilar. Tish, tirnoqlarig`a ilingan erlarini yirtib, uzub olaberdilar..." [1,216]. Ushbu ta`kidlardan badiiy publitsistikaning pamflet janriga xos o`tkir fosh etish usuli ko`zga tashlanadi. Pamflet aslida yunoncha so`z bo`lib, o`t qo`ymoq, yondirmoq degan ma`noni bildiradi. Keyinchalik bu ingliz tili orqali ommalashib, shu kunning muhim masalasiga bag`ishlangan va keskin fosh etish tarzida yozilgan asarga nisbatan qo`llanib kelindi. Zotan, pamflet jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayotida uchraydigan ijtimoiy illat va nuqsonlarni kuchli hajviy uslubda tasvirlab, fosh etuvchi asar, publitsistika janridir. [4,189]

Abdurauf Fitrat barcha talangan va talanayotgan mamlakatlarning umumiy ahvoli, qismatini o`xshash dalillar bilan taqqoslar ekan, "Ovrupaning och qirg`iylari" Sharqdan olg`an mamlakatlarda taraqqiy va madaniyat degan narsani qat`iyan ko`rguzmay, bizga beradigan narsalari: safohat, axloqsizlik, qumor va sharobxo`rlik" ekani, yoki "Sharqg`a madaniyat maktablari, insoniyat madrasalari ocharmiz deb

kelgan Ovrupa jahongirlari fohishaxona va mayxonadan boshqa narsa ochmagan"lari va buning maqsad hamda sabablarini fosh etadi: "Ajabo, Ovrupa jahongirlari bu ishlarni bilibmi qildilar, bilmasdanmi qildilar? Albatta, bilib qildilar, jo`rtaga qildilar,"- deydi publitsist. Mushohada qilinishicha, ularning fikri xalqqa madaniyat va maorif berib, taraqqiy ettirish emas, balki, turli fohishaxonalar va mayxonalar ochib, "axloqimizni buzmoq, bizning sog`ligimizni xarob etmak va urug`imizni qurutib, bizni ishdan chiqarmoq va o`z qo`llarig`a muhtoj qilib qo`ymoqdir." Muallif rusiyaning turkistonliklar uchun qo`llayotgan siyosati ham shunday ekanligini-da ro`y-rost ta`kidlaydi. Shu sababli u sharqliklarning mehnat usuli, dehqonchilik va hunarmandchilik sirlarini Ovrupa egallay olmasligini, Rusiya esa sharqliklar bilan kelishib yashashga majburligini qat`iy uqdiradi. Publitsistik asarda nafaqat shu kabi masalalar, balki dunyo "jahongir"lari o`rtasidagi o`zaro kelishmovchiliklar natijasida avj olgan siyosiy xurujlarga ham munosabat bildirilgan.

Umuman, bu kabi tarixiy voqealar endilikda xolisona baholanmoqda. O`z vaqtida ham Cho`lpon asarlarida, A. Qodiriyning "Siyosat maydonida", "Sho`x baytal" sarlavhali fel'eton va pamfletlarida shunday ruh ustuvor [4,192]. Abdurauf Fitrat publitsistikada ijtimoiy-siyosiy dolzarb voqelikni keskin tanqid qilish orqali o`quvchida mavjud hodisaga nisbatan kuchli nafrat, g`azab uyg`otishda g`arb adabiyotidagi etakchi janrlardan foydalangan bo`lsa, uni ifodalashda sharq adabiyotiga xos tashbehlar, ko`chma ma`noli so`zlar, bunda uyushib kelgan fe`l kesimlarni qo`llash orqali ma`no ta`sirchanligiga erishadi: "Boyaqish Sharq o`z jonini qutqarg`ali ko`b tirishdi, tebrandi, qichqirdi, dodladi, yugurdi, hamla qildi, qochdi, qo`rqutdi, yalindi, esiga kelgan har yo`lg`a kirib ko`rdi"[1,216]. Ajratib ko`rsatilgan so`zlardagi ma`no tovlanishlarining maydoni keng. Mazkur matn orqali esa mustamlakaga aylangan sharqliklarning bosqinchilik siyosatiga jimgina qarab turmay, qo`llaridan keladigan barcha kuchlarni ishga solgani, g`alayon ko`targani(tebrandi), istibdod va zulmga qarshi baralla kurashgani, jang qilib, goh engib-engilgani, xullaski, ilojsizlik qurboni bo`lganini anglash mumkin.

Zero, har bir tuzum ijtimoiy-siyosiy hodisalari ko`proq o`sha davr publitsistikasida o`z aksini topadi. Abdurauf Fitrat ham shu ma`noda o`z davrining faol, erkparvar ijodkori sifatida yorqin iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. TA. 3-jild. - T.: Ma`naviyat, 2003.-B.252
2. Tog`aev O. O`zbek badiiy publitsistikasi. - T.: O`zbekiston, 1973. - B. 19
3. Husainov M. O`zbek sovet badiiy publitsistikasi. - T.:Fan, 1978, -B.24
4. Xudoyqulov M. Hozirgi zamon jurnalistikasi. - T., 2008. -B.189.

| | |
|---|-----|
| <u>IV. PUBLITSISTIKA VA BADIY TAHLIL</u> | |
| XOLMIRZAYEVA S. TOKTASINOVA R. “BOYSUN” FOLKLOR ETNOGRAFIK XALK ANSAMBLI | 246 |
| SUNDETULY K. KAZAKISTAN'DA HALK EĞITIMI ALANINDA BÜYÜK İNSANLAR | 249 |
| JAMILOVA B. ABDURAUF FITRAT PUBLITSISTIKASI VA BADIY TALQIN | 253 |
| КОЖИКБАЕВА З. ЖӨМІЙЕТЛИК ДҮЗИМ ХӘМ САТИРАЛЫҚ ПУБЛИЦИСТИКАНЫҢ ҮЙЛЕСИМЛИГИ | 257 |
| ПАРДАЕВА М. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ СИЁСИЙ-ИЖТИМОЙ МАВЗУЛАРДАГИ ХАЖВИЯЛАРИДА ФОРСИЙ, АРАБИЙ ВА РУСЧА СЎЗЛАРНИНГ БАРАВАР ҚЎЛЛАНИЛИШИ | 260 |
| FAYZULLAYEVA Z. OCHERKLARDA INSON SIYRATI | 264 |
| ASHUROVA F. “CHIG‘ATOY GURUNGI” TASHKILOTI FAOLIYATIDA | 268 |
| ESHPU LATOVA S. VAHSLARDA TUG‘ILGAN HAQIQAT | 270 |
| ALLABERGANOVA A. MUTRIB XONAXAROBIIY IJODIDA PUBLITSISTIK USLUBNING NAMOYON BO‘LISHI | 274 |
| DJUMANIYAZOVA Z. O‘ZBEK MAQOLLARIDA AYOL OBRAZINING AKSIOLOGIK JIHATDAN IFODALANISHI | 276 |
| ARZIKULOVA S. CHO‘LPON PUBLITSISTIK ASARLARIDA AYOL TAQDIRI | 279 |
| TO‘XTAYEVA D. BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDA PUBLITSISTIK MAQOLA VA MATNLAR IFODASI | 283 |
| QURBONOVA N. CHOR HUKUMATI DAVRIDA O‘ZBEK ADABIYOTI NAMOYONDALARIGA QILINGAN NOHAQLIK VA TAHDIDLAR | 287 |
| OCHILOVA S. KO‘CHIM PARALINGVISTIKANING MAXSUS TURI SIFATIDA | 289 |
| RASULOV M NURMATOVA S. NOTIQLIK – SAN‘AT | 293 |
| <u>V. MEDIAMATNLAR TAHLILI VA TAHRIRI</u> | |
| ORAZIMBETOVA Z. QORAQALPOQ MATBUOTDA TAHLILIIY JANRDAGI MATERIALLARNING TILI VA USLUBIGA OID TAHLILLAR | 296 |
| TASHMUKHAMEDOVA L. BADIY ADABIYOTLAR TAHRIRI | 299 |
| МИРЗАНАЗАРОВА Э. АХМЕДОВА С. СВОЕОБРАЗНОЕ ОТРАЖЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ КАЛИГРАФИИ В РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОГО ИСКУССТВА | 303 |
| HALIMOVA S. “TUJJOR” GAZETASINING TILI VA USLUBI | 310 |
| SAFAROV A. O‘ZBEKCHA FRONT GAZETASI TILI, USLUBIGA MAFKURAVIY TALABNING TA‘SIRI | 313 |
| MUXANOVA M. MATN TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRUVCHI VOSITALAR | 316 |
| OLIMOV H. SPORTGA DOIR MATNLARNING LEKSIK ASOSLARI | 319 |
| NE‘MATOVA G. “UZBEKISTAN AIRWAYS” JURNALIDA O‘ZBEKISTON NUFUZINI YANADA OSHIRISHGA XIZMAT QILAYOTGAN MAQOLALAR TAVSIFI | 322 |
| ABDYUJANOVA V. PUBLITSISTIK MATN TAHRIRINING MANTIQUIY ASOSLARI | 326 |

| | |
|---|-----|
| NASIMOVA I. STORITELLING PUBLITSISTIKA JANR SIFATIDA | 330 |
| XASANOVA A. PUBLITSISTIK MATNDA FRAZEOLOGIZMNING AHAMIYATI | 333 |
| MEYLIYEVA A. BOLALAR NASHRLARIDA MEDIAMATNLAR TAHLILI VA TAHRIRI | 336 |
| ABDUG'ANIYEV A. MEDIA MATNLARIDA TIL ME'YORLARINING BUZILISHI | 338 |
| <u>VI. NOTIQLIK MAHORATI</u> | |
| NURMANOVA S . PEDAGOG NUTQINING KOMMUNIKATIV SIFATLARI | 339 |
| YAKUBOVA F. TELEJURNALISTNING NUTQIY MAHORATI | 341 |
| АБДУЛЛАЕВ Ж. ЭЛГА ШОҲУ ҲАҚҚА ҚУЛ | 345 |
| NURUTDINOVA M . MARKAZIY OSIYODAGI BUYUK NOTIQLAR, ALISHER NAVOIY VA UNING ZAMONDOSHLARI HAQIDA | 351 |
| АЛИМХОНОВА Ш . РИТОРИКА - НАУКА И ИСКУССТВО | 355 |
| ШАКУРБАНОВА Н . ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ОПАТОРСКОГО ИСКУССТВА В РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА | 359 |
| RUSTAMBEKOV M. ASRLAR OSHIB KELAYOTGAN SAN'AT | 362 |
| NURUTDINOVA M. ALISHER NAVOIY IJODIDA NOTIQLIK SAN'ATINING TALQIN ETILISHI. | 365 |
| МИРЗАЛИЕВА Д. ПСИХОЛОГИЯ ИНТЕРВЬЮИРОВАНИЯ | 367 |
| SODIQJONOVA Y. MUVAFFAQIYATLI NUTQ HOSIL BO'LISHIDA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR | 369 |
| TUXSANOVA P. NOTIQLIK MAHORATI | 372 |
| ERGASHEV D. NOTIQLIK SAN'ATI | 374 |
| BOBOXONOVA F. TO'XTAYEVA D. INTERNET TARMOG'IDA NUTQ USLUBLARINING KO'RINISHI | 378 |
| QURBONOVA R. MULOQOT MA'DANIYATI VA TO'G'RI MULOQOT TASHKIL QILISH KO'NIKMASI. | 382 |
| <u>VII. TARJIMA MAHORATI: OAVDAGI TARJIMA MATNLARI TAHLILI</u> | |
| USMONOV O. FYODOR DOSTOYEVSKIYNING "JINOYAT VA JAZO" ROMANI TARJIMASI XUSUSIDA | 386 |
| MUHAMMEDOVA H. VIKTORIAN INGLIZ ADABIYOTI EMILI BRONTE IJODI MISOLIDA | 389 |
| BO'RONOVA B. BADIY TARJIMADA LIRIK TASVIR UYG'UNLIGI | 391 |
| ISMATULLAYEVA N. XITOVCHA REKLAMA MATNLARINING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMASIDA PRAGMATIK XUSUSIYATLARNING IFODASI | 396 |
| MADVALIYEV O. TARJIMA MATNLAR TAHRIRI: TA'LIMDAGI BO'SHLIQ VA INNOVATSION YONDASHUV EHTIYOJI | 399 |
| RASULOVA K. OYBEKNING "NAVOIY" ROMANIDAGI TAOM VA YEGULIK NOMLARINING TURKCHA TARJIMALARDA AKS ETISHI | 405 |